

**O'zbekiston Respublikasi
yalpi hududiy mahsuloti¹**
2026- yil yanvar-iyun oylari uchun²

- I. Yalpi hududiy mahsulot
- II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi
- V. Izohlar
- VI. Havolalar

I. Yalpi hududiy mahsulot

Statistika dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan 2026- yil yanvar-iyun oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM)ni dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

YAIM (YAHM) hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-iyun

	2025- yil ³		2026- yil	
	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'atlari, % da	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'atlari, % da
O'zbekiston Respublikasi ⁴	900 694,2	107,2	1 072 670,1	108,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26 399,0	105,2	32 383,9	110,2
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	50 447,6	106,4	59 619,7	108,8
Buxoro	38 591,9	106,4	44 766,0	108,8
Jizzax	25 075,3	107,9	29 694,6	108,6
Qashqadaryo	48 589,9	105,9	55 712,6	108,4
Navoiy	88 053,6	107,9	113 870,5	106,7
Namangan	36 777,2	107,3	45 540,0	108,3
Samarqand	56 041,9	107,0	67 361,0	109,7
Surxondaryo	31 428,1	105,7	35 865,3	107,3
Sirdaryo	16 124,5	106,3	19 147,9	108,4
Toshkent	84 051,8	107,3	103 829,4	108,7
Farg'ona	56 674,4	106,8	65 221,6	109,1
Xorazm	28 354,2	107,4	32 933,3	109,1
Toshkent sh.	187 770,3	110,6	226 028,7	113,3

Mavzuga doir havola:

[YAIM \(YAHM\) hajmi \(choraklik\)](#)

[YAIM \(YAHM\) o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

¹ Ma'lumotlar kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.


² Dastlabki ma'lumotlar

³ 2025- yilning yanvar-iyun oylari ma'lumotlari qayta baholangan.

⁴ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2026- yilning yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahri **21,1 %** ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Navoiy va Toshkent viloyatlari **10,6 %** va **9,7 %** ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YAIMini shakllantirishda eng kam ulush Jizzax (**2,8 %**) va Sirdaryo (**1,8 %**) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

2026- yilning yanvar-iyunida YAIMni shakllantirishda hududlarning ishtiroki




II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAIM (YAHM)ning tarmoqlar bo'yicha hajmi, mlrd so'm

	YAIM (YAHM)	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Mahsulotlarga sof solliqlar
O'zbekiston Respublikasi	1 072 670,1	154 256,4	272 600,0	79 171,5	521 594,0	45 048,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	32 383,9	8 581,8	5 372,9	2 713,0	14 978,4	737,8
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	59 619,7	16 062,5	15 032,7	3 775,8	23 714,0	1 034,7
Buxoro	44 766,0	12 336,2	8 690,9	4 554,0	18 291,2	893,7
Jizzax	29 694,6	10 631,0	5 351,7	1 995,1	11 093,9	622,9
Qashqadaryo	55 712,6	16 667,4	8 841,0	3 891,4	23 699,6	2 613,2
Navoiy	113 870,5	5 539,1	92 627,6	3 534,5	11 424,1	745,2
Namangan	45 540,0	12 189,1	7 021,2	3 508,0	22 075,9	745,8
Samarqand	67 361,0	15 968,4	11 796,8	4 015,0	34 510,0	1 070,8
Surxondaryo	35 865,3	12 550,5	3 236,1	3 291,0	16 361,3	426,4
Sirdaryo	19 147,9	4 688,5	5 384,8	1 522,3	7 038,2	514,1
Toshkent	103 829,4	13 899,9	47 075,3	7 789,9	32 280,4	2 783,9
Farg'ona	65 221,6	17 436,7	10 065,9	5 007,8	31 473,6	1 237,6
Xorazm	32 933,3	7 705,4	5 059,8	3 529,6	16 000,1	638,4
Toshkent sh.	226 028,7	-	42 278,8	25 357,6	143 120,6	15 271,7

2026- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHM tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax (**36,6 %**) va Surxondaryo (**35,4 %**) viloyatlarida, sanoatning eng yuqori ulushi Navoiy (**81,9 %**) va Toshkent (**46,6 %**) viloyatlarida, qurilishning eng yuqori ulushi Toshkent shahri (**12,0 %**) va Xorazm viloyatida (**10,9 %**), xizmatlar sohasining eng yuqori ulushi esa Toshkent shahri (**67,9 %**) va Samarqand viloyatida (**52,0 %**) kuzatildi.

2026- yilning yanvar-iyunida YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, jamiga nisbatan % da



**2026- yilning yanvar-iyun oylarida
YAIM (YAHM)ning tarmoqlar bo'yicha o'sish sur'atlari, % da**

	YAIM (YAHM)	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Mahsulotlarga sof solliqlar
O'zbekiston Respublikasi	108,5	104,7	108,0	113,7	109,2	108,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	110,2	106,0	107,5	140,2	108,9	113,1
viloyatlar:						
Andijon	108,8	104,5	109,2	119,3	109,6	112,6
Buxoro	108,8	104,2	108,2	115,5	110,6	113,0
Jizzax	108,6	105,5	112,3	120,2	107,6	115,3
Qashqadaryo	108,4	105,1	108,3	119,0	108,2	115,9
Navoiy	106,7	104,4	105,4	127,2	112,3	107,2
Namangan	108,3	105,0	108,7	113,2	108,6	111,5
Samarqand	109,7	104,5	109,8	135,4	109,4	117,7
Surxondaryo	107,3	104,1	108,2	119,5	107,3	112,4
Sirdaryo	108,4	104,2	108,1	116,0	109,0	114,8
Toshkent	108,7	104,9	108,4	112,4	109,5	111,0
Farg'ona	109,1	104,5	108,3	122,4	110,0	111,4
Xorazm	109,1	104,4	108,5	122,0	109,1	112,0
Toshkent sh.	113,3	-	108,0	110,2	115,5	113,9

III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyati O'zbekistonning barcha hududlari orasida aholi jon boshiga YAHM hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichli hududga aylandi. Joriy narxlarda bu ko'rsatkich **102,1** mln so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga YAHM hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda **70,7** mln so'm bilan Toshkent shahri, uchinchi o'rinda esa **32,7** mln so'mlik natija bilan Toshkent viloyati bo'ldi.


Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-iyun

	2025- yil		2026- yil	
	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'atlari, % da	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'atlari, % da
O'zbekiston Respublikasi	23 890,2	105,2	27 950,1	106,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12 971,2	103,8	15 740,7	109,0
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	14 519,6	104,4	16 872,3	107,0
Buxoro	18 525,3	104,8	21 194,6	107,3
Jizzax	16 234,0	105,8	18 878,1	106,6
Qashqadaryo	13 288,5	103,6	14 931,2	106,2
Navoiy	80 123,0	106,1	102 108,0	105,2
Namangan	11 693,6	105,1	14 221,5	106,4
Samarqand	12 982,9	104,8	15 320,7	107,7
Surxondaryo	10 617,7	103,3	11 860,4	105,0
Sirdaryo	17 251,8	104,4	20 167,1	106,7
Toshkent	26 928,2	105,4	32 701,3	106,9
Farg'ona	13 614,4	104,7	15 387,5	107,1
Xorazm	13 905,7	105,4	15 876,5	107,2
Toshkent sh.	60 009,8	108,1	70 740,8	111,0

IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi

2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kichik biznesning respublika YAIMidagi ulushi **50,5** % ni tashkil etdi. Hududlarda kichik biznesning eng katta ulushi Surxondaryo (hududda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat umumiy hajmining **76,0** % ini tashkil etgan), Farg'ona (**74,2** %) va Namangan (**72,7** %) viloyatlarida kuzatildi. Kichik biznesning eng kam ulushi Navoiy (**14,6** %) va Toshkent (**49,7** %) viloyatlarida qayd etildi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi



V. Izohlar

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hududiy rivojlanishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichidir. YAHM o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra, YAIM bilan bir xil ko'rsatkich bo'lib, u mazkur hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHM hisob-kitoblari respublika darajasida O'zbekiston Respublikasining 14 ta ma'muriy-hududiy birligi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyatlar va Toshkent shahri) bo'yicha ishlab chiqarish usuli asosida amalga oshiriladi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni nazarda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashning uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim tarkiblari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulotni shakllantirishda dastlabki axborot sifatida yalpi ichki (hududiy) mahsulot hamda demografiya va mehnat statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

VI. Havolalar

[Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Yalpi hududiy mahsulot](#)

Chop etishga mas'ul:
Milliy hisoblar boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Aloqalar: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1060)

